

## EKSKEVATOR CHO'MICH TISHLARINI YUQORI CHASTOTALI TOKDA TOBLASH ASOSLARI

**Maxkamov Rustamjon Ixtiyorjon o'g'li**  
*Andijon mashinasozlik instituti magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yer qazish mashinasini tosh tuproq sharoitlarida turli qazish ishlarini olib borishda mexanik kuch va zarbiy ishqalanish orqali ro'y beradigan detal yeyilishida yuqori chastotali tok bilan tolablashning ahamiyati o'rganib chiqildi.

**Kalit so'zlar:** Yer qazish mashinalari, induksion isitish, tok chastotasi, harorat,

Respublikamizda yo'l qurish, qurilish, konchilikda qazish ishlarini hajmini ortirish, ishlab chiqarishning moddiy va energetik harajatlarini kamaytrish, ularda keng qo'llaniladigan texnik vositalardan samarali foydalanish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilib ma'lum natijalarga erishilmoqda.

Yurtimizda qurilish hamda bunyodkorlik ishlarida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda, bunda esa tosh tuproq qazish mashinalarining tez yeyiladigan ishchi organlarining resursini va ishga yaroqlilik muddatini oshirish bilan ko'plab olimlar shug'ullanmoqda. Ular tomonidan tosh tuproq qazish mashinalarini ishchi organlarining umrboqiyligi va resursini oshirishni taminlaydigan bir qator konstruktiv va texnologik yechimlar taklif etilgan. Shunga qaramasdan ushbu mashinalarning yeyilish muddatini uzaytrish muommosi dolzarbligicha qolmoqda. Hozirgi vaqtida ekskavatorning cho'mich tishlari qimmatbaxo 110Г13Л po'latidan tayyorlanadi. Bu po'lat manbalarda Gadfield po'lati deb ham ataladi. 1882 yilda Ingliz metallurgi Robert Gadfield tomonidan kashf qilingan ushbu po'lat sanoatning juda ko'p sohalarida turli xil detallarni tayyorlashda qo'llanib kelinmoqda. Ushbu po'lat ГОСТ 2176-77 va ГОСТ 977-88 lar bo'yicha ishlab chiqariladi. 110Г13Л po'lati qamoqxona panjaralarini, tanklarning zanjirlarini, askarlar uchun shlemlar, temir yo'l transportida, tosh maydalash tegirmonlari ko'rpusini, ekskavator cho'michlarining old devorini va tishlarini va shu kabi katta statik va dinamik yuklanishlarda ishlaydigan va yuqori mustaxkamlik talab qilinadigan detallarni tayyorlashda qo'llaniladi. Ushbu po'latdan tayyorlangan ekskavator cho'mich tishlari mustahkamligi yaxshi bo'lishiga qaramay, abraziv sharoitlarda, ayniqsa tosh-tuproq qazish ishlarida jadal yeyilib tez ishdan chiqishi kuzatiladi. Yeyilish-bu ishqalanish davridagi yuzalarning yemirilishi va yuza qatlamlarining ajralib chiqish va ishqalanishda hosil bo'ladigan kritik deformatsiyalarining yig'ilib qolishi jarayoni



bo'lib, bunda asta-sekin detallarning o'lchamlari va shakllari o'zgaradi. Yeyilish ta'rifidan ko'rinishicha, yeyilish davrida detal yuzalari yemiriladi. Yuza qatlamlaridan material zarrachalari ajralib chiqadi. Ajralib chiqqan material zarrachalarining o'lchami mikrondan kichik va mikrondan bir necha marta ortiq bo'lishi mumkin. Bu hodisaga yuklamaning qayta ta'siri, tutashuvdagagi harorat impulsining ayrim yuzalarida katta bo'lishi yordamlashadi va bunda qaytarib bo'lmas o'zgarishlar yuz berib, kuchlanishlar oshib boradi. Shu sababli detal materiali yuzasida mikrodarzlar paydo bo'ladi va ular material yuzasidan mayda zarrachalarning ajralib chiqishiga va detal yeyilishiga olib keladi. Yuqori marganetsli po'latning tannarxi oddiy sifatli po'latlarga nisbatan ancha qimmatligini xam xisobga olish zarur. Shu sababli po'latlarga termik ishlov berib uning resurisini oshirish kerak bo'ladi, bunda esa po'latlarni yuqori chastotali to'k bilan toplash maqsadga muvofiqdir. Ushbu jarayonni amalga oshirish esa quyidagicha bajariladi ya'ni, induksion qizdirish zagotovkaga induktor orqali yuqori chastotali tok ta'siri orqali amalga oshadi. Yuqori kuchlanishli elektr toki induktorga yuborilganda aylanasiga kuchli magnit maydon hosil bo'ladi, Po'latli zagotovka o'zgaruvchan magnit maydoni bilan ta'sirlanadi, magnit kuchi ta'siri natijasida unda elektr harkatlanuvchi kuch paydo bo'ladi, hosil bo'lgan tok kuchini zagotokaga ta'siridan qizish boshlanadi. Cho'mich tishlarni yuza toplashda ish samaradorligini ortirish, sifatini yaxshilash va termik ishlov berish chuqurligini taminlash tok chastotasiga bog'liq, termik ishlov berishda detallarni talab etilgan haroratgacha qizdirish evtektoid po'latlarni  $Ac_3$  kritik xaroratdan, evtektoid va evtektoiddan keyingi po'latlarni  $Ac_1$  kritik xaroratdan  $30-50\text{ }^{\circ}\text{C}$  yuqoriroq haroratgacha qizdiriladi. Qizdirish jarayonida metallni fizik xususiyati bir xilda bo'lmaydi, qizdiriluvchi jismga haroratni taqsimlanishiga qarab ta'sir ko'rsatadi 45 markali po'latni  $700\text{ }^{\circ}\text{C}$  haroratgacha qizdirilganda magnit xossa deyarli o'zgarmasdan qoladi,  $800\text{ }^{\circ}\text{C}$  haroratgacha ( $768\text{ }^{\circ}\text{C}$  temir uchun Kyuri nuqtasi) qizdirilganda bu xususiyat keskin kamayib ketadi. Magnit xususiyatni bir xilda bo'lishi vakum holatida va haroratni ko'tarilib borishi bilan o'zgarmay qoladi. Zagotovkani ichki qismiga tokni ta'siri darajasi chastotaga qarama-qarshidir. Katta o'lchamdagagi zagotovkani uzluksiz qizdirishni ta'minlash uchun ishlab chiqarish chastotasidagi tok (50 Hz) qo'llaniladi, o'lchami uncha katta bo'limgan zagotovka uchun – yuqori chatotali tok (500 - 800 Hz); zagotovkani yuza qismlarini qizdirish uchun – oshirilgan va yuqori chastotali toklardan foydalaniladi. Ko'pgina metallarda elektr qarshlik darajasi haroratni oshishi bilan o'sib boradi. Po'latlarni  $800 - 900\text{ }^{\circ}\text{C}$  haroratgacha qizdirilganda qarshlik darajasi 8 - 10 martaga ortadi. Shunday qilib, ferromagnit po'latni  $800\text{ }^{\circ}\text{C}$  dan yuqori haroratda qizdirganda magnit o'tkazuvchanligi o'zgarishining umumiyligi ta'siri va rezistivlik tok kirishining chuqurligiga ta'sir qiladi.




Shu munosabat bilan "sovuuq" va "issiq" ta'sir chuqurligi qabul qilingan. Paramagnit metallarni induksion qizdirish vaqtida sirt effekti ularning solishtirma elektr qarshiligi bilan aniqlanadi. Shuning uchun bunday metallarni xona haroratida qizdirilganda ferromagnit, undan yuqori holatda magnit almashinuv sodir bo'ladi.

### **Po'latlarni qizdirish uchun optimal tok chastotasi; 1-jadval**

	Tok chastotasi, Hz	Ta'sir chuqurligi, Mm
	50	76
	500	25
	1000	17
	2500	11
	4000	9
	8000	6
	10000	5

Yuqori chastotali tok olish uchun mashinali, lampali va terristor ta'minlagich qo'llaniladi. Sanoat tok chastotasida qizdirishda foydalanilganda induktor to'g'ridan to'g'ri sanoat elektr kuchlanish chastotasiga yoki kamaytiruvchi transformator orqali ulanadi. Induksion qizdirishda chastotalar ishlatalishiga qarab oshirilgan chastota 500 dan 10000 hz va yuqori chastota – 50000 dan 1000000 hz va undan yuqorilarga bo'linadi. Shunga asoslanib, mashinali va lampali yuqori chastotali generatorlar ishlataladi.



### **Lampali generatorning yuqori chastotali tokini elektr sxemasi: (1-rasm)**


1 – generator transformatori; 2 – kuchdanish transformatori; 3 – ulagich; 4 – gene ratorli lampa; 5 – yuqori chastotali transformator; 6 – induktor; 7 – zagotovka

Mashinali generator uch fazali tokka ulangan elektrodvigatel va unga yuqori chastotali tok beruvchi generatorga biriktirilgan. Dvigatel va generator bitta qurilmaga montaj qilingan (motor - generator). Motor - generator ishlash vaqtida ularning cho'lg'ami qiziydi, shuning uchun motor - generator havo bilan yoki suv bilan sovitish jahozi yordamida sovitilib turiladi. Induksion qizdirishning asosiy elementi bo'lgan induktor spirasimon, to'g'ri burchakli yoki kvadrat va boshqa



shakllarda bo'lib mis quvurlardan tayyorlanadi. Induktorlar ishlash vaqtida doimo suv bilan sovitib turiladi zagotovani yuqori chastotali tok bilan induktor orqali qizdiriladi va uni sovutiladi.

### **Induksion qizdirish qurilmasini umumiyl sxematik tuzilishi. (2-rasm)**



Qizdirish qurilmasi ulagich (1), uchfazali elektrodvigatel (2), aylantiruchi geneoator (3), transformator (4), induksion qizdirgich (5), kondensator batareyasi (6) qismlaridan tuzilgan. Bunday induksion qizdirish qurilmasida zagotovkalarni oddiy induksion qizdirish uchun barcha qismlar keltirilgan

Elektr induksion pechlari boshqa o'choq tizimlariga nisbatan ma'lum afzalliliklarga ega. Ularga quyidagilar kiradi

**Yuqori hosil.** Yonish manbalarining yo'qligi ishlab chiqarish iqtisodiyotida muhim bo'lishi mumkin bo'lgan oksidlanish yo'qotishlarini kamaytiradi.

**Tezroq ishga tushirish.** Elektr ta'minotidan to'liq quvvat bir zumda mavjud bo'lib, ish haroratiga erishish vaqtini qisqartiradi. Bir soatdan ikki soatgacha bo'lgan sovuq zaryadlash vaqtini keng tarqalgan.

**Moslashuvchanlik.** O'rta chastotali yadrosiz induksion eritish uskunasini ishga tushirish uchun eritilgan metall kerak emas. Bu takroriy sovuq ishga tushirish va tez-tez qotishma o'zgarishini osonlashtiradi.

**Tabiiy aralashtirish.** O'rta chastotali birliklar kuchli aralashtirish ta'sirini berishi mumkin, natijada bir hil eritma paydo bo'ladi.

**Tozalovchi eritish.** Yonishning qo'shimcha mahsuloti yo'qligi toza erish muhitini va yonishning ifloslanishini nazorat qilish tizimlarining tegishli mahsulotlarini anglatmaydi.

**Kompakt o'rnatish.** Kichik o'choqlardan yuqori erish tezligini olish mumkin.

**Qisqartirilgan refrakter.** Erish tezligiga nisbatan ixcham o'lcham, indüksiyon pechlari yoqilg'ida ishlaydigan qurilmalarga qaraganda kamroq o'tga chidamliligini anglatadi. Induksion pechlari gaz pechlari, kamon pechlari yoki gumbazlarga qaraganda ancha jum. Yonish gazi mavjud emas va chiqindi issiqlik minimallashtiriladi.



**Energiyani tejash.** Induksion eritishda umumiyligi samaradorligi 55 dan 75 foizgacha o'zgarib turadi va yonish jarayonlariga qaraganda ancha yaxshi

**Induksion isitish** o'zgaruvchan elektr toki bilan qismning o'zida paydo bo'ladi. Natijada, mahsulotning buzilishi, buzilish va rad etish stavkalari minimallashtiriladi. Mahsulotning maksimal sifati uchun qism oksidlanish ta'sirini yo'qotish uchun yopiq xonada vakuum, inert yoki kamaytiruvchi atmosfera bilan ajratilishi mumkin. Ishlab chiqarish stavkalarini maksimal darajada oshirish mumkin, chunki induksiya juda tez ishlaydi; issiqlik to'g'ridan-to'g'ri va bir zumda ( $> 2000^{\circ}$  F.  $<1$  soniyada) qism ichida ishlab chiqiladi. Ishga tushirish deyarli bir zumda amalga oshiriladi; isitish yoki sovitish davri talab qilinmaydi. Induksion isitish jarayoni qismlarni partiyalarни узоqdagi o'choq zonasiga yoki subpudratchiga yuborish o'rniغا, sovuq yoki issiqlik shakllantiruvchi mashinaning yonida ishlab chiqarish maydonchasida yakunlanishi mumkin..

Xulosa qilib aytgan, induksion isitish qurilmasi orqali toplash boshqa toplash usullariga nisbatan samarali ekan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Asqarxo'jayev T.I. Yer qazish va yo'1 qurilish mashinalaming hisobi va nazariyasi. Toshkent, Fan va texnologiya, 2006. 270 b.
2. Asqarxo'jaev T.I., Shukurov R.O\* YoM-qurilish mashinalarining tuzilishi va ulardan foydalanish. Toshkent, Sharq, 2007. 320 b.
2. Каримов Ш.А. Материалларга иссиқлайин ишлов бериш жиҳозлари ва жараёнлари ўқув қўлланма. –Тошкент, 2019. -201 б

